



ABDUPATTAYEV Mumin Mirzo Murodjon o'g'li
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
katta o'qituvchisi, PhD
mirzo21@umail.uz

MUHAMMAD SHAHRISTONIYNING DINIY BAG'RIKENGLIK PRINSIPI

THE PRINCIPLE OF RELIGIOUS TOLERANCE OF MUHAMMAD SHAHRISTANI

ПРИНЦИП РЕЛИГИОЗНОЙ ТОЛЕРАНТНОСТИ МУХАММАДА ШАХРИСТАНИ

Annotatsiya: Ushbu maqolada XI-XII asrlar mashhur olimi Muhammad ibn Abdulkarim Shahrisoniy qalamiga mansub “al-Milal va-n-nihal” asarida dinlarga bo‘lgan munosabat yoritilgan. Olim o‘z asarida dinlarni obyektiv tadqiq etgan. Allomaning dinlarga bo‘lgan bag‘rikeng munosabati bugungi kunda dinlararo muloqotni to‘g‘ri tashkil etishda dasturulamal bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Shahrisoniy, diniy bag‘rikenglik, xristianlik, yahudiylik, falsafa, kalom.

Annotation: This article examines the approach to religions in the work “al-Milal wa-n-nihal,” authored by the renowned scholar Muhammad ibn Abdulkarim Shahrisoni from the 11th-12th centuries. In his study, he conducted an objective analysis of various religions. Today, his tolerant perspective towards religions provides a foundation for structuring interreligious dialogue effectively.

Keywords: Shahrisoni, religious tolerance, Christianity, Judaism, philosophy, kalam.

Аннотация: В этой статье анализируется отношение к религиям в труде «ал-Милал ва-н-нихал», автором которого является известный ученый XI-XII веков Мухаммад ибн Абдулкарим Шахристани. В своем исследовании ученый

представил объективный анализ религий. Толерантное отношение улема к различным вероисповеданиям сегодня лежит в основе программ по организации межрелигиозного диалога.

Ключевые слова: Шахристани, религиозная толерантность, христианство, иудаизм, философия, калам.

KIRISH

Bugun O‘zbekiston Respublikasida turli konfessiya va e‘tiqod vakillari bir-biri bilan yonma-yon, tinch-totuv yashab kelmoqda. Jamiyatda tinchlikni saqlash, o‘zaro totuvlikni ta‘minlash uchun turli e‘tiqod vakillari vatan taraqqiyoti yo‘lida birga harakat qilishlari zarur. Ularning o‘zaro inoq yashashlarida esa diniy bag‘rikenglik muhim ahamiyat kasb etadi. Diniy bag‘rikenglik turli millat va elatga mansublarning, turli din va e‘tiqod vakillarining bir zamin, yagona Vatan, bir yurtida, bir hududda ezgu g‘oya yo‘lida hamkor, hamfikir va hamjihat bo‘lib yashashni anglatadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning, “Bizning davlatimiz ko‘p millatli va ko‘p konfessiyali davlat. Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek ahil va inoq yashamoqda. Bu borada, hech shubhasiz, xalqimizga azaldan xos bo‘lgan bag‘rikenglik an‘analari muhim rol o‘ynamoqda”, degan fikrlari buning isbotidir [1:464].

O‘zbek olimlari diniy bag‘rikenglikka shunday ta‘rif berishgan: “Diniy bag‘rikenglik (tolerantlik) – turli din vakillarining e‘tiqodidagi mavjud farqlardan qat’iy nazar yonma-yon va o‘zaro tinch-totuv yashashi hamda har bir dinga hurmat bilan qarashi hisoblanadi. U xilma-xil diniy e‘tiqodda bo‘lgan kishilarning olijanob g‘oya va maqsadlar yo‘lidagi hamjihatligini, kishilik jamiyati ravnaqi yo‘lida birgalikda xizmat qilishini anglatadi” [2:33].

ASOSIY QISM

Diniy bag‘rikenglik turli e‘tiqod va dunyoqarash sohiblari o‘rtasidagi o‘zaro chiroyli muomalaga asoslanadi. Bu borada “al-Milal va-n-nihal” asarida hozirgi globallashgan davrda dinlararo muloqotni samarali tashkil etish, e‘tiqod vakillari orasida toqatlilikni ta‘minlash uchun katta ahamiyatga ega g‘oyalarni uchratish mumkin.

“Al-Milal va-n-nihal”da diniy e’tiqodlar obyektiv usulda yoritilgan. Bunday asarlarda nafaqat islomdagi mazhablar va oqimlar, balki boshqa dinlar ham tanqidsiz bayon qilingan. Fransuz tadqiqotchisi G.Monno asardagi xolislik to’g’risida: “Bu asar mavjud manbalarga va tajribalarga asoslangan holda dinlarni tavsiflovchi ensiklopedik asar hisoblanadi. Dunyo dinlarini tizimli ravishda tanishtirish maqsadida yozilgan ushbu asarning yana bir muhim jihati shundan iboratki, o’zidan oldingi asarlardan farqli ravishda unda yunon, hind falsafiy ta’limotlari to’g’risida ham batafsil ma’lumot berilgan”, degan [3:199-200].

Muhammad ibn Abdulkarim Shahrisoniy asarning muqaddimasida boshqa din vakillari e’tiqodlariga nisbatan xolis bo’lishni, ularga raddiya bermaslikni, ular bilan behuda tortishmaslikni va e’tiqodlarini to’g’ri-noto’g’riga ajratmaslikni shart qilib qo’rganini aytgan: “Men har bir firqa ta’limotlarini ularning kitoblarida topganimdek, ularga nisbatan mutaassiblik qilmasdan, raddiya bermasdan, e’tiqodlarning to’g’risi bilan noto’g’risini, haq bilan botilini ajratmasdan bayon qilishni o’zimga shart qilib belgiladim. Zero, aqliy dalillar o’rtaga chiqqanda, haqiqatning ifodasi va botilning badbo’y ishi zakiy va fahm sohiblaridan yashirin qolmaydi” [4:22].

“Al-Milal va-n-nihal” asarining barcha olimlar tomonidan qadrlanadigan jihati shundaki, olim asarda islomdan boshqa dinlar va oqimlarni o’rganishda ilmiy xolislikka alohida e’tibor bergan. Muallif o’zi ta’kidlaganidek, asarda boshqa e’tiqod vakillariga nisbatan hurmatni saqlashga harakat qilgan. Bu jihat undan avvalgi davrlarda yozilgan asarlarda kamdan-kam uchraydi. Olim bu borada ustoz, ash’ariylik aqidaviy ta’limoti asoschisi, mutakallim Abul Hasan Ash’ariy (873-936)ning: “Men dinlar va mazhablar to’g’risida asar yozadigan yoki gapiradigan, yozganida yoki gapirganida xato izlaydigan, raqibining xato qilishini kutadigan hamda raqibini shu xatosi uchun atayin yomonlaydigan, muxolifining qarama-qarshi fikrini bayon qilayotganda adashadigan va o’zini haq deb ko’rsatishga urinadigan insonlarni ko’rdim. Bu olimlar va aqli insonlarning yo’li emas” [5:3], degan so’zlarini o’ziga dasturul amal deb bilgan

Tarixda ahli sunna va shia toifalari o’rtasida keskin kurashlar bo’lib kelgan. Shahrisoniy

yashagan davrda bu kurash eng yuqori cho’qqiga chiqqan. Saljuqiylar davlatining g’arbiy chegaralari shialikning ismoiliylik firqasi e’tiqodida bo’lgan Fotimiylar davlati (909-1171) bilan tutashar edi. Ikki davlat o’rtasida ham siyosiy, ham diniy-mafkuraviy qarama-qarshiliklar bor edi. Fotimiylar tomonidan 988-yilda asos solingan “Azhar” madrasasi dastlab sunniylikka qarshi targ’ibot bilan shug’ullangan[6:34]. Bunga javoban saljuqiylar Nishopurda “Nizomiya” madrasasini bunyod etishgan. Bu madrasasining asosiy faoliyati shialikning ismoiliylik, rofiziylar firqalariga raddiya berish bo’lgan [7:313-314].

“Al-Milal va-n-nihal”da muallif o’z davridagi siyosiy va diniy vaziyat og’irligiga qaramay shialikning barcha firqalari qabul qilgan imomat masalasini keltirib, unga xolis munosabat bildirgan. “Shialar, – deydi olim, – Ali (r.a.) ga tarafdor bo’lganlardir. Shialar Ali (r.a.)ning imomatini va xalifaligini ochiq yoki yashirin nass va vasiyat bilan sobit bo’lganini aytadilar. Ularning e’tiqodlariga ko’ra, imomat Ali (r.a.) va uning avlodlaridan boshqasiga o’tishi mumkin emas, agar imomat ulardan boshqaga o’tsa, bu yo boshqa bironing zulmi, yo o’zlarining taqiyalari sababidan bo’ladi”[4:169].

Bundan ko’rinadiki, olim shialarga avvalo e’tiqodiy emas, balki siyosiy firqa deb, munosabat bildirgan. Ularning e’tiqodlari ham asosan imomat masalasida shakllanganini bayon qilgan. “Shialar imomat nass va tayinlash orqali bo’lishi, payg’ambarlar va imomlar katta va kichik gunohlardan pok (ma’sum)ligini e’tirof etishda, taqiya holatidan tashqari holatda so’z, amal va shartnomalarga amal qilish yoki qilmaslik masalalarida ittifoq qilganlar” [4:169].

Olim, ularning imomat masalasiga oid e’tiqodlariga biror bir raddiya bermagan. Bundan kelib chiqadiki, muallif asarning muqaddimasida qo’rgan shartiga amal qilishga harakat qilgan. Asarda zikr qilingan shialikka oid ma’lumotlar bugungi kunda ham sunniy va shia vakillari o’rtasida o’zaro hurmat va do’slik qaror toptirishga beqiyos xizmat qiladi.

Shahrisoniy har bir shia toifasiga nisbatan bag’rikeng bo’lgan deyish mumkin emas. Sababi, g’ulot toifasi aqidada adashib, Ali (r.a.) va ba’zi imomlarni iloh, deyishgacha borgan. “Bular, o’z imomlari haqida g’uluvga ketib, hatto, ularni

maxluqotlar chegarasidan (sifatidan) chiqarib, ularni ilohlik darajasiga ko'targanlardir. Bular, ba'zan imomlaridan birini ilohga, ba'zan esa ilohni maxluqotlarga o'xshatishgan" [4:203], - deb, ularning aqidalari asarda keltirilgan.

Muallif ularga raddiya berishda, asar raddiya kitobi emasligini ta'kidlab, shunday degan: "Bu toifa vakillarining hammasi qattiq sarosimaga tushib, adashgan, imomlarning holini bilmagan johil va esankirab qolgan odamlardir" [4:212].

Saljuqiylar davlatining qulashiga sabab bo'lgan shia toifalaridan biri bu botiniylikdir. Olim botiniylikni "Maqolot sohiblari" goh islom firqalari doirasida, goh undan tashqarida hisoblashlarini aytgan. Muallif, bu toifa asoschisi Hasan Sabbohning kitoblarini o'qib chiqqanini ta'kidlab, "Hasan Sabboh botiniylik e'tiqodini arabcha va forscha iboralar bilan olib borgan. Biz uning forscha kitoblarini arabchada keltiramiz, naql qilish ayb emas! Muvaffaqiyat qozongan kishi – haqqa ergashgan va botildan saqlangan odamdir. Muvaffaq qiluvchi va yordam beruvchi Zot Allohdir" [4:214].

Shu bilan birga, olim ularning e'tiqodlari noto'g'ri ekanligini tushuntirish maqsadida ular bilan bahslashganini va ularning javoblarini ifodalab, shunday degan: "Men ular bilan yuqorida zikr qilingan tamoyillar bo'yicha qancha bahslashsam ham ular o'z fikrlaridan qaytmadilar va menga: "Senga ehtiyojimiz bormi? Buni sendan eshitamizmi yoki sendan o'rganamizmi?", dedilar. Ehtiyoj masalasida ular bilan yumshoqroq bahslashib, "O'ziga muhtoj bo'lingan kishi qayerda? U ilohiyot masalasida menga nimani isbotlaydi? Aql bilan bilish mumkin bo'lgan narsalar (ma'qulot)da men uchun qanday qoidalarni o'rta qo'yadi? Maqsad muallimning o'zi emas, maqsad uning ta'limidir. Ilm eshiklarini yoptinglar, taslimiyat va taqlid eshigini ochdinglar. Hech bir oqil inson aqlga nomunosib bo'lgan ta'limotga ergashmaydi va ishonchli dalilsiz biror yo'ldan yurmaydi", dedim" [4:234].

Olim ular bilan bahslashish behuda ekanini aytib, munozaraga shunday nuqta qo'ygan: "Kalomning boshlanishi tahkimot (masalani hukm qilguvchiga qoldirish), natijasi esa taslim bo'lishdir. "Bas, Rabbingiz haqqi, ular o'rtalaridan chiqqan nizolarga Sizni hakam qilmagunlaricha va so'ngra chiqqan hukmingizdan dillarida tanglik

sezmay, to'la taslim bo'lmagunlaricha zinhor imon keltirmagaylar" (Niso, 65) [8:88].

Ko'rinib turibdiki, olim hatto o'z imomlarini "iloh" degan toifaga nisbatan ham muloyim tarzda bahsga kirishgan. Ular olimning savollariga javob bera olmay, toqatsizlik qilishganda, ularga oyatlarni dalil qilib keltirgan. Ular bilan behuda munozara qilishdan qochgan. Asarda zikr qilingan shialikka oid ma'lumotlar bugungi kunda sunniy va shia vakillari orasida o'zaro hurmat, do'stlik qaror toptirishga beqiyos xizmat qiladi.

Bugungi globallashuv zamonida dinlararo muloqotni to'g'ri tashkil etish, turli konfessiya vakillari o'rtasida do'stona munosabatni shakllantirish, o'zga e'tiqodga nisbatan tolerant bo'lish har qachongidan ham dolzarb muammoga aylanib bormoqda. Islom dini musulmonlar bilan bir diyorda yashayotgan boshqa din vakillariga chiroyli munosabatda bo'lishga buyuradi. Ular bilan ijtimoiy masalalarda hamkorlik qilish ham din buyurgan amallardan hisoblanadi. Shahristoniy musulmon bo'lmagan yahudiylilik va nasroniylilik e'tiqodlariga bag'rikeng munosabatda bo'lgan.

"Ularning har ikkisi Ahli kitobning eng katta ummatlaridan. Yahudiy ummati kattaroqdir, chunki shariati Muso (a.s.)ga oid bo'lib, Bani Isroilning barchasi bu shariatga e'tiqod qilishga, Tavrotning hukmlarini qabul qilishga va unga amal qilishga buyurilgan edi" [4:248].

Shu bilan birga olim, Tavrotda Ismoil (a.s.) avlodlariga nisbatan hurmat ko'rsatilgani borasida quyidagilarni zikr qilgan. "Tavrotda Bani Isroildan bo'lgan Asbot Ismoil avlodlariga mansub qabilalarga murojaat qilgani va Ismoil avlodlarida Tavrotda uchramaydigan laduniy ilm borligini bilishgani ifoda etilgan. Tarix kitoblarida Ismoil o'g'illarining Olulloh (Alloh oilasi) va Ahlulloh (Allohnning ahli) deb, Isroil o'g'illarining esa Oli Ya'qub (Ya'qub oilasi), Oli Muso (Muso oilasi) va Oli Horun (Horun oilasi) deb nomlanganliklari keltirilgan. Bu, Ismoil o'g'illari uchun muhim afzallikdir. Tavrotda keltirilishicha, Alloh taolo Turi Sinodan kelib, So'irda zuhur etgan va Foronda ko'ringan. So'ir Baytul Maqdisdagi tog' bo'lib, Iso (a.s.) shu yerda payg'ambar bo'lgan. Foron esa Makkadagi tog' bo'lib, Mustafo (s.a.v.) shu yerda payg'ambar bo'lganlar" [4:248]. Shahristoniy keltirgan bu ma'lumot yahudiylar va musulmonlar tarixan bir o'zlik ekani, ular o'rtasida

turli tortishuvlar bo'lmisligi kerakligiga yaqqol dalildir.

O'zbekistonda turli e'tiqod vakillari yurt manfaati uchun tinch-totuv yashab kelmoqda. Respublikada faoliyat yuritayotgan o'n oltita konfessiyadan o'n beshtasi noislomiy konfessiya hisoblanib, ularning o'n bittasi xristianlik dini doirasidagi konfessiyalar hisoblanadi. O'zbekiston diyoriga ilk nasroniylar V asrda kirib kelgan. Amir Temurning uchinchi o'g'li Mironshoh "Xristian dini homiysi" unvoniga sazovor bo'lgan. Bugungi kunda ham ushbu din vakillari O'zbekistonda musulmonlardan keyingi ikkinchi katta diaspora hisoblanadi. Shahristoniy xristianlarning e'tiqodini keltirar ekan, ularning "uchlik", Iso (a.s.) to'g'risidagi aqidalariga ob'yektiv yondashgan.

"Xudo uchun uchlik uqnumini berishga uringan nasroniylar, aytadi: "Xudo yagona javhardir. Ya'ni, O'z Zoti bilan qoimdir. Makon va hajmdan munazzahdir. U javhar e'tiboridan yagona, mohiyatga ko'ra esa uchta. Ya'ni, mohiyatdan hayot, ilm va borlik kabi sifatlar qasd qilingan". Nasroniylar mohiyatdan qasd qilingan sifatlarni Ota, O'g'il va Muqaddas Ruh deb nomlashgan. Ammo, ilm boshqa mohiyatlar (unsurlar)siz mujassamlashgan va himoyalangan" [4:263]. Muallif bu yerda xristianlar Xudoni uchta deb emas, balki uning uch xil ko'rinishi bor, deb e'tiqod qilishlarini ta'kidlagan. Bu yondashuv bugungi kunda nasroniylarning e'tiqodini to'g'ri qabul qilish va ularga nisbatan toqatsizlik qilishdan qaytaradi.

Ma'lumki, o'rta asrlarda musulmon dunyosiga mo'tazila oqimi ta'sirida yunon falsafasi kirib kelgan. Shu tariqa, antik davr faylasuflarning mantiq, dialektika, ritorika, metafizikaga oid qarashlari musulmon diyorlarida jadal rivojlana boshlagan. Vaqtlar o'tib, islomga oid ilmlar, arab tili grammatikasi va stilistikasi ham yunon falsafasi ustiga qurilgan. Yunon falsafasining islom ilmlariga nisbatan foydasi va zararlari ham bo'lgan. Zarari, antik davr faylasuflarining qarashlarini ba'zi musulmon olimlari mutlaq haqiqat va mezon deb qabul qilishgan va ayrim diniy masalalarda adashishgan. Jahmiya, mo'tazila, qadariya kabi aqlni birlamchi deb biluvchi, yunon falsafasini haqiqat deb qabul qiluvchi firqalar islom e'tiqodiga to'g'ri kelmaydigan so'zlar va fikrlarni gapira boshlaganlar. Hatto Allohning

ism-sifatlarini to'g'risida ham falsafaga asoslangan qarashlarini ilgari surib, Xudo tushunchasini yunon faylasuflarining tushunchasi bo'yicha talqin eta boshlaganlar. Shuning uchun Imom Shofe'iy, Jaloliddin Suyutiy, Ibn Saloh, Ibn Daqiq al-Iyd, Imom Navaviy, Imom Munoviy, Abu Homid G'azzoliy (umrining oxirida) va boshqa bir qancha sunniy olimlar falsafa bilan shug'ullanishni haromga chiqarganlar.

Yunon falsafasida islomga zid narsalar qabul qilinib, barcha narsaga "kulliyot" nuqtai nazaridan munosabat bildirilishi yuqoridagi ulamolarni falsafani o'rganish va o'rgatishdan qaytarganlariga asosiy sabab bo'lgan. Lekin, vaqtlar o'tib, falsafaga tayangan holda adashgan firqalarga asosli javoblar berilib, islom aqidasiining sofligini ko'rsatib berish zarurati tug'ilgach, sunniy olimlar falsafani islom ilmlari doirasida o'rganishni boshlaganlar.

O'zbek olimlaridan R.Isoqjonov musulmon dunyosiga yunon falsafasining o'tkazgan ta'siri to'g'risida shunday deydi: "Yunon falsafasining islom tafakkuriga to'la ta'siri arab tiliga qilingan tarjimalar natijasida IX asrda namoyon bo'ldi. Bundan oldingi davrda musulmonlar siyosiy va harbiy masalalar bilan band bo'lganlar. She'r ham ko'pincha siyosat xizmatkoriga aylangan edi. Islom dini bilan siyosat, shariat ahkomlari bilan e'tiqod usullari orasida yaqinlik paydo bo'lgan edi. Musulmonlar o'rtasidagi birinchi siyosiy nizo ummatga (musulmonlar jamoasiga) rahbarlik qilish masalasida ro'y berdi" [9:39]. Tadqiqotchi buni, "Bayt al-hikma"da yunon falsafasining ustunlari hisoblangan faylasuflar Arastu, Ptolemey, Yevklid, Porfiriylar asarlarining arab tiliga tarjima qilingani bilan izohlagan.

Muhammad ibn Abdulkarim Shahristoniy o'rta asrlarda falsafaga qarshi asar yozgan olimlardan farqli ravishda, "al-Milal va-n-nihal"ning ikkinchi juzini "Falsafa" deb nomlagan va unda yunon, hind va musulmon faylasuflarining ta'limotlarini keltirgan. Biror o'rinda falsafa va faylasuflarga nisbatan raddiya bergani kuzatilmaydi. Olimning bu yondashuvi, falsafaga oid qarashlarni bayon qiluvchi yondashuv, deb baholasa bo'ladi.

Olim o'zi o'rgangan falsafiy ta'limotlarning asl matnlarini o'qigani va tahlil qilganini aytadi. Masalan, yunon faylasuflarining e'tiqodlar borasidagi fikrlari to'g'risida shunday deydi: "Bizdan avvalgi musulmon faylasuflar juda

kam uchraydigan iqtiboslarni inobatga olmasa, yunon faylasuflari va falsafasini chetga surdilar va fikrlari qarshi kelib qolganda ularni qattiq rad etishdi. Biz esa, u asarlarni o‘qib chiqdik, ularning fikrlarini sinchiklab tekshirdik va tahlil qildik. Ular o‘rtasidagi ixtiloflarni o‘rganish va baholashni esa o‘quvchi ixtiyoriga topshirishni ma’qul deb bildik” [4:374].

XULOSA

Shahristoniy asarning ko‘p o‘rinlarida e’tiqodlar to‘g‘risida xulosa chiqarishni o‘quvchining o‘ziga qoldirgan. Ya’ni, asarni o‘qigan inson o‘zining e’tiqodi va dunyoqarashidan kelib chiqib, kerakli xulosalarni olishi mumkin, deb hisoblagan. Yuqoridagilardan shuni ta’kidlash lozimki, Shahristoniy dinlar va e’tiqodlarni o‘rganishda xolislik prinsipiga qat’iy amal qilgan. Boshqa e’tiqodlarga nisbatan bag‘rikenglik tamoyilini qo‘llagan. O‘zga din vakillarini tanqid qilmagan. Bu yondashuv, din va e’tiqodlarning fundamental asoslarini o‘rganishda, ularning tarixiy asoslarini yoritishda aniqlikni ta’minlaydi hamda diniy bag‘rikenglik tamoyillari rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan, Shahristoniy e’tiqodlarni yoritishda avvalo mantiqqa tayangan va ularning islom ta’limotiga zid aqidalarini ma’lum uslub doirasidagina ko‘rib chiqqan. Bir so‘z bilan aytganda, olimning “al-Milal va-n-nihal” asari dinlar tarixini xolis o‘rganishda, muqaddas kitoblari bilan tanishishda, o‘zga din va e’tiqod vakillariga bag‘rikeng munosabatda bo‘lishda asosiy manba sifatida xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. (2017). Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 592 b.
2. Rahimjonov D., Akramova F. va boshq. (2019). Glossariy. Sof islomiy tushunchalar: mohiyat va talqin. – Toshkent : “O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi” nashriyoti, 2019. – 330 b.
3. Bruce B. Lawrence. (1987). Al-Shahristani. – New York : Macmillan Reference USA, 1987. – 297 p.
4. Muhammad ibn Abdulkarim Shahristoniy. (2001). Al-Milal va-n-nihal. – Bayrut : Dor al-ma’rifa, 2001. – 663 b.
5. Abul Hasan Ash’ariy. Maqolot al-islamiyyin va ixtilav al-musollin.– Bayrut : Maktaba al-asriyya, 1990. – J. I. – 340 b.
6. Нюби Г. (2007). Краткая энциклопедия ислама / Пер. с англ.. – Москва : Фаир-пресс, 2007. – 384 с.
7. Tojuddin Subkiy. (2015). Tabaqot ash-shofe’iya al-kubro. – Bayrut : Dor al-ma’orif, 2015. – J. 4. – 600 b.
8. (2016). Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri / tarjima va tafsir muallifi Shayx Abdulaziz Mansur. – Toshkent : “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2016. – 624 b.
9. Isoqjonov R. (2019). Islom falsafasi. – Toshkent : Complex Print, 2019. – 191 b.